

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

Farg'ona shahrining geokimyoviy landshaftlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari .....	117
<b>Sh.Q.Yuldasheva</b>	
Aqliy mehnat paytida qondagi qand miqdorini turli yoshdagi odamlarda o'zgarishi.....	122
<b>Z.A.Jabbarov, G.R.Atoyeva, M.H.Husniddinova</b>	
Tuproqlarning kimyoviy ifloslanish natijasida biologik xossalarning o'zgarishi .....	127
<b>X.X.Dolimov, I.J.Jalolov, A.A.Ibragimov</b>	
<i>Cynara scolymus</i> L. O'simligidan ajratib olingan endofit zamburug'lar ekstraktlarining saraton hujayralariga qarshi biologik faolliklari .....	133
<b>S.Israyiljanov, J.T.Mamasaidov, H.O.Adulboqiyeva</b>	
Og'ir metallarning o'simlik, hayvonlar va odam organizmiga fiziologik ta'sirini o'rganishga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili .....	138
<b>M.K.Juliyev, L.A.Gafurova, M.D.Xolmurodova, B.E.Abdikairov</b>	
Markaziy Osiyoda tuproq eroziyasi bo'yicha 1993-2022-yillar oralig'ida Scopus ma'lumotlar bazasida nashr etilgan maqolalar tahlili .....	143
<b>X.X.Dolimov, I.J.Jalolov, A.A.Ibragimov</b>	
Analysis of macro and micro elements and water-soluble vitamins of the plant <i>Cynara scolymus</i> L.....	149
<b>S.O.Madumarova, M.Sh.Raximov, M.J.Madumarov, A.A.Tokoev</b>	
Farg'ona vodiysi Cladocera ( <i>Crustacea: Branchiopoda</i> ) lari ro'yxati.....	157
<b>Z.A.Jabbarov, T.Abdraxmanov, O.N.Imomov, J.J.Abdukarimov</b>	
Tuproq sifati indikatorlari va ularni qo'llanilishi.....	166
<b>M.A.Tog'ayeva, Sh.A.Samatova</b>	
Qashqadaryo viloyati aholisi iste'mol qilayotgan yumshoq bug'doy navlari tarkibidagi temir elementi miqdori.....	176
<b>M.A.Davidov</b>	
Tabiiy sharoitda <i>Mogoltavia sewerzowii</i> ( <i>Regel</i> ) korovin antekologik xususiyatlari .....	181
<b>X.N.Raximov, G.T.Djalilova</b>	
Qo'llanilgan mineral va organik o'g'it me'yorlarini tuproqlarni agrokimyoviy xossalari ta'siri .....	186
<hr/>	
<b>M.R.Qoriyev</b>	
Global iqlim isishi sharoitida mevali daraxtlar vegetatsiyasidagi o'zgarishlar .....	191
<b>O.N.Nasirov</b>	
Mustaqillikni dastlabki davrida O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarni shakllanishi .....	196
<b>R.A.Ikromov</b>	
Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda milliy qadriyatlarning roli.....	200
<b>S.Nishonova</b>	
Maqollar paremiologik birlik sifatida .....	205
<b>Sh.A.Tadjibaeva</b>	
Rahbar ayol imidji tushunchasi va uni shakllantirishning psixologik xususiyatlari .....	208
<b>S.S.Jabborova</b>	
Yangi O'zbekistonni barpo etishda ma'naviy salohiyatdan foydalanish istiqbollari.....	213
<b>E.U.Gulzoda, A.Z.Rashidov</b>	
Ijodiy faoliyat uchun, o'quv mashg'ulotlarining o'ziga xos uslubiy chizmasiga egaligi, ijodkorlarning eksperimental ishiga katalizator bo'lib xizmat qilishi omillari.....	219
<b>K.M.Nilufar</b>	
Turli tarixiy kontekstlarda intellektual madaniyat masalasi.....	222
<b>T.Quyliyev</b>	
Global ekologik muammolar va ularning oldini olishda xalqaro institutlarning roli .....	227
<b>B.M.Qandov</b>	
Jamiyat barqarorligini ta'minlashda sog'lom mafkuralarning roli .....	233
<b>Z.A.Akbarova, G.M.Nosirova</b>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning kognitiv rivojlanishiga bilingvizmning ta'siri .....	238
<b>F.F.Muydinov</b>	
Tibbiy ta'limda mediata'lim asosida o'quv mashg'ulotlarini samarali tashkil etishning ayrim jihatlari.....	242
<b>Z.S.Paziljanova</b>	



UO‘K: 001.8:316.7

## TURLI TARIXIY KONTEKSTLARDA INTELLEKTUAL MADANIYAT MASALASI

### ПРОБЛЕМА ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ В РАЗЛИЧНЫХ ИСТОРИЧЕСКИХ КОНТЕКСТАХ

### THE PROBLEM OF INTELLECTUAL CULTURE IN DIFFERENT HISTORICAL CONTEXTS

**Nilufar Koshanova Maxsudovna** 

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti v.b.

#### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolamizda turli tarixiy davrlar kontekstida intellekt tushunchasining ijtimoiy-falsafiy mohiyati, intellektual mulkning bugungi jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyati, shu bilan birga intellektual madaniyatni rivojlantirishga bo‘lgan davr ehtiyoji o‘rganilgan, shuningdek qiyosiy tahlil, tarixiylik metodlari asosida aql tushunchasiga davrlararo yondashuvlar MDH tadqiqotchilari asarlari asosida tahlil qilingan.*

#### **Аннотация**

*В данной статье исследуются социально-философская природа понятия интеллект в контексте разных исторических периодов, значение интеллектуальной собственности в экономическом развитии современного общества, а также современная потребность в развитии интеллектуальной культуры. На основе методов сравнительного анализа и историчности проанализированы межпериодные подходы к понятию интеллекта на основе работ исследователей СНГ.*

#### **Abstract**

*This article examines the socio-philosophical nature of the concept of intelligence in the context of different historical periods, the importance of intellectual property in the economic development of modern society, as well as the modern need for the development of intellectual culture. Based on the methods of comparative analysis and historicity, interperiod approaches to the concept of intelligence are analyzed based on the works of CIS researchers.*

**Kalit so‘zlar:** intellektual mulk, intellektual kapital, zamonaviy jamiyat, mualliflik huquqi, innovatsion g‘oyalar, onging streotiplari, aql, intellektual aloqa, Butunjaxon intellektual tashkiloti.

**Ключевые слова:** интеллектуальная собственность, интеллектуальный капитал, современное общество, авторское право, инновационные идеи, стереотипы сознания, интеллект, интеллектуальная коммуникация, Всемирная интеллектуальная организация.

**Key words.** intellectual property, intellectual capital, modern society, copyright, innovative ideas, stereotypes of consciousness, intelligence, intellectual communication, World Intellectual Organization.

## **KIRISH**

Bugungi shiddatli globallashuv davrida, hal qiluvchi asosiy qudratli omil qirg‘inborot qurollar, harbiy kuchlar emas, balki intellektual salohiyat, tafakkur, ilg‘or dunyoqarash sifatida maydonga chiqmoqda. Jamiyat va davlat hayotining barcha jabhalari shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda, mamlakatimizning jahon bozorida mustahkam o‘rin egallashi va rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo‘shilishi, ko‘p jihatdan zamonaviy innovatsion g‘oyalar, ixtirolar, ya‘ni intellektual mahsulotlarni yaratish, hamda uni tijoratlashtirish ishlari bilan bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Intellektual mulk Yevropada yalpi ichki mahsulotning 45% i, Xitoyda 12%i, Rossiyada 7 % ni tashkil etadi.

Zamonaviy globallashgan dunyoda intellektual mulk himoyasini ta‘minlash muhim ahamiyatga ega. Nomoddiy aktivlar ulushi 1975-yilda 17 %ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2020 yilga kelib 90% ga ko‘tarilib, ularning taxminiy qiymati 21 trillion AQSH dollariga yetgan. Butunjaxon intellektual tashkiloti tahlillariga ko‘ra, 2019-yilda 17 ta davlat mashhur qahramonlar va o‘quv-ilmiy adabiyotlardan foydalanish uchun litsenziya olish natijasida 64,1 mlyard dollar foyda ko‘rgan. Shu o‘rinda AQSHning YAIMga mualliflik huquqlari orqali keladigan daromadi 2,2 trln dollarni tashkil qilgan bo‘lib, bu AQSH YAIMsining 12 %iga teng bo‘lgan. Intellektual mulk juda serdaromad yo‘nalish sifatida “Coca-cola”, “KFS”, “Nestle” va “Apple” kompaniyalariga trillion dollardan ortiq

## ILMIY AXBOROT

daromad olib kelmoqda. Ammo, afsuski, mamlakatimizda intellektual mulkni tijoratlashtirish ko'rsatkichlari nihoyatda past. Bundan mamlakatimizda idodkorlar jamoasi: olimlar, ixtirochilar, tadbirkorlar, yozuvchilar va san'atkorlar jiddiy jabr ko'rmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda intellektual mulk muhofazasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, "Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori [1], 2022-2026-yillarda intellektual mulk sohasini rivojlantirish strategiyasi [13] qabul qilindi. Strategiyaning bosh maqsadi intellektual mulk sohasi bo'yicha qonunchilikda mavjud bo'shliq va ziddiyatlarni bartaraf qilish, ilg'or jaxon tajribasi asosida uni doimiy takomillashtirib borish, hamda intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhokama qilish jarayonlarini zamonaviy tendensiyalarni inobatga olgan holda muntazam takomillashtirib borish, shuningdek intellektual mulk obyektlarining yaratilishini qo'llab quvvatlash, intellektual mulkga nisbatan huquqiy madaniyatni yuksaltirish hisoblanadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 20-fevralda Turkiyaning Anqara shahrida Xalq kutubxonasi ochilishi marosimida ishtirok etar ekan haqli ravishda "Dunyoda har qaysi davlat, har qaysi xalq birinchi navbatda o'zining intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir" [14], - deya haqli fikrlarni aytgan edilar.

A. Zinovyev bugungi globallashuv jarayonidagi salbiy og'ishlarni hisobga olib "Endi aql taqchilligi o'sib borayotgan davr keladi", - degan edi [5].

Darhaqiqat, bugungi kunda dunyoda rivojlangan mamlakatlar tabiiy resurslar neft, oltin, paxtadan ham ko'ra inson tafakkuri mahsuli bo'lgan intellektual mahsulotlarni tijoratlashtirish hisobiga katta daromad ko'rayotgan ayni vaqtda intellektual madaniyatning rivojlanishini turli tarixiy aspektlarda o'rganish ahamiyatlidir.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Mahalliy tadqiqotchilardan B.Toshev, F. Nabiyevlar intellektual mulk muhofazasining huquqiy asoslari bo'yicha; MDH tadqiqotchilaridan D.N.Bogoyavlenskiy va N.A. Menchinskayalar intellektual madaniyatni shakllantirish muammosi; Z.I. Kulmakova (1981), P.Ya. Galperin, (1985), N.F.Talyzina (1975), T.V. Kudryavtsev (1975), A.M. Matyushkin (1972), I.S.Yakimanskaya (2004) va boshqalar shaxsning intellektual rivojlanish muammolarini ta'lim nazariyalariga mos ravishda ko'rib chiqadi. N.A. Loshkareva (1980), I.Ya. Lerner (1981), Y.K. Babanskiy (1982) talabalarning aqliy rivojlanishga asoslangan faoliyatlari, xususan, kasbiy faoliyat doirasida tajribalarni o'rganish, nostandart vaziyatlarga moslashuvchan munosabatda bo'lish, ahamiyatli bo'lgan narsalarni qabul qilish qobiliyatlarini tahlil qilgan.

M.A. Xolodnaya tadqiqotlarida [11] esa intellektual madaniyatni rivojlantirishning asosiy omili sifatida intellektual ta'lim muammosi tahlil qilinadi. Mamlakatimizda intellektual madaniyatning jamiyat taraqqiyotidagi ijtimoiy-falsafiy jihatlari bo'yicha tadqiqotlar yetarli darjada emas.

Ilmiy-tadqiqot ishimizda tarixiylik, analiz, sintez, qiyosiy tahlil kabi metodlardan foydalanildi.

#### MUHOKAMA

Madaniyat har qanday ijtimoiy hodisaga taalluqli tushuncha bo'lib, u ongning, tafakkurning yaxlitligi yoki ularning ayrim qismlari va tomonlari va xususiyatlariga ham tegishli. Har qanday ijtimoiy hodisa singari aql ham "madaniyat" tushunchasi yordamida tavsiflanadi. Tirik mavjudotlar ichida aql-zakovat faqat insonga berilgan. Intellektual madaniyat madaniyatning tarkibiy qismlaridan biridir.

Jamiyatda intellektual madaniyat ma'lum bir ijtimoiy-tarixiy sharoitda shakllanadi va rivojlanadi. Har bir tarixiy davrning intellektual madaniyati murakkab va ko'p bosqichlidir. Bu esa o'z navbatida turli tarixiy davrlar kontekstida intellektual madaniyatning rivojlanish holatlarini o'rganishni taqozo qiladi. Chunki har bir tarixiy davrda, yuz bergan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat ta'sirida intellektual madaniyat o'ziga xos tarzda namoyon bo'lgan. Boshqacha qilib aytganda har bir tarixiy davrning o'ziga xos umumiy madaniy kelib chiqishi, ya'ni, asosiy g'oyalari, qadriyatlarini, streotiplari, belgilari mavjud. Muayyan shaxsning intellektual madaniyatini o'rganishda zaruriy shartlardan biri tarixiy davrdagi intellektual kapital uzatish mexanizmlarini o'rganishdir.

A. Molning fikricha [1]<sup>1</sup>, intellektual faoliyat madaniyatni shakllantirishning asosidir. Intellektual faoliyatning kengroq kontekstini o'rganmasdan turib, davrning intellektual madaniyatini tizimli tahlil

<sup>1</sup> Моль А. Социодинамика культуры. М., 1973.

qilib bo'lmaydi. Har bir tarixiy davrda hayot sharoitlarining o'zgarishi bilan insonning tabiati va imkoniyatlari, tashqi dunyo bilan munosabatlari, ijtimoiy o'zaro ta'siri, kognitiv ustuvorliklari, madaniy rivojlanishning etakchi tendentsiyalari o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

**Intellektual madaniyatning tarkibiy qismiga quyidagilar kiradi:**

- elita va kasbiy madaniyat;
- ommaviy ongning streotiplari;
- tabiat va jamiyatda atrofdagi dunyoni obyektivlashtirish va konseptualshtirishning mantiqiy usullari;
- intellektual madaniyatni qo'llab-quvvatlovchi rasmiy va norasmiy muassasalar;
- intellektual jamoalar va ilmiy maktablarning kommunikativ amaliyoti;
- intellektual aloqa shakllari.

**"Intellektual madaniyat"** atamasi turli ma'nolarda keng qo'llanilib, yagona ta'rifi yo'q. Uning asosiy mazmunini aniqlashda "aql" asosiy kategoriya hisoblanadi. **"Intellektual madaniyat"** tushunchasining ilmiy muhitda keng doirada qo'llanilishi psixologiya sohasida inson shaxsi rivojlanishini o'rganish jarayonida qo'llanilishi bilan dunyoga keldi. Psixologiyada shaxsning individualligining yuqori darajasiga erishishda, kognitiv psixologiyada ong va intellektual madaniyatning rolga alohida e'tibor qaratiladi. Zamonaviy psixologiya nuqtai nazaridan intellekt bu ma'lumotlarni qayta ishlash uchun ma'sul bo'lgan noyob mexanizmdir.

Rus tadqiqotchisi V. Ivanova intellektual madaniyatning elementlari "ilmiy" ishlash qobiliyati, axloqning barcha to'rtta darajasida o'zaro bog'liqlik va uslubiy jihatdan ravonlik texnikasi ekanligini ta'kidlaydi [7].

Shaxsda psixologik rivojlanishning past yoki yuqori ko'rsatkichlariga erishishda intellektual detallarning rasmiy tabiatining o'rniga alohida urg'u beriladi. Bu esa o'z navbatida turli tarixiy davrlar kontekstida intellektual madaniyatning rivojlanish holatlarni o'rganishni taqozo qiladi. Chunki har bir tarixiy davrda, yuz bergan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat ta'sirida intellektual madaniyat o'ziga xos tarzda namoyon bo'lgan. Boshqacha qilib aytganda, har bir tarixiy davrning o'ziga xos umumiy madaniy kelib chiqishi, ya'ni, asosiy g'oyalari, qadriyatlar, streotiplar, belgilari mavjud. Muayyan shaxsning intellektual madaniyatini o'rganishda zaruriy shartlardan biri tarixiy davrdagi intellektual kapital uzatish mexanizmlarini o'rganish lozim bo'ladi. Shu o'rinda aqlning mohiyati, tuzilishini o'rganish va aniqlashga urinishlar esa antik davrga borib taqaladi. Jumladan, Aristotel o'zining "Ruh haqida" (O душе .435 p) nomli asarida faol va nazariy (passiv) onglarni bir-biridan ajratadi.

Aristotelning fikricha faol aql haqiqatni o'ylaydi, nazariy aql unga murojat qiladi [2]. Fikrimizcha buyuk mutafakkurning mazkur mulohazasi juda o'rinli. Demak, "intellekt" tushunchasi madaniyat, ilmiy tafakkurning yaratuvchisi hisoblangan Aristotel asarlarida ham "qadimiy fikrlash" timsoli sifatida paydo bo'lganligini ko'rishimiz mumkin [4]. G'arbiy Yevropa o'rta asr sxolistikasida kognitiv faoliyatda aqlning ro'lini cheklab uni bo'ysundirishga harakat qilingan. XVII asrda yashagan nemis faylasufi Leybnits inson ma'naviy olamini 3 qismga ajratadi: aql; iroda ixtiyor va his-tuyg'u. XVII-XIX asr epistimologiyasida madaniyat aslida "tajriba" kabi noaniq atama sifatida qaralganligini ko'rishimiz mumkin.

Yangi davr mutafakkirlaridan Kusalik Nikolas (Nicholas of Cusa) aqlga tug'ma qobiliyat sifatida baho beradi. Aqlning murakkab tuzilishga egaligi, o'ziga xosligi unga yagona bir ta'rifni ishlab chiqishni qiyinlashtiradi. Klassik falsafa rivojlangan davrda (XVII-XIX asrlarda) "intellektual madaniyat" haqidagi tushunchalar o'rnida uning noyob ekvivalenti "tajriba" tushunilgan. Shu bilan birga tajribaning turli darajalari aniqlangan:

1. Tabiiy emperik(taassurot).
2. Operativ-emperik-harakat-operatsiyalar oqibatlarini bilish.
3. Emperik muloqat-oldingi darajalar tajribasini umumlashtirish(induksiya) .
4. Nazariy konstruksiyalar-deduktiv aksiomalar.

Murakkab ijtimoiy va tarbiyaviy tarkibga ega bo'lgan jamiyatda intellektual madaniyat elementlarining (submadaniyatlarning) real o'zaro ta'sirini tushunish, madaniyatlararo muloqot, yangi g'oyalarni idrok etish va tarqatish modellarini aniqlash muhimroqdir. Intellektual madaniyatni o'rganish yo'nalishlaridan biri madaniyatning ko'p qatlamli makonida bilim, fikr va turli xil ma'lumotlar shaklida g'oyalar aylanishining o'ziga xos jarayonlarini tahlil qilishdir.

Intellektual an'ana bir vaqtning o'zida intellektual faoliyatning zarur sharti va uning hosilasi sifatida, shuningdek, intellektual merosni saqlashning shakli va usuli sifatida ishlaydi. Albatta, yangi tarixiy sharoitlarda intellektual an'anani qabul qilish va o'zlashtirish merosning ayrim elementlarini tanlash, an'ananing ichki rivojlanishi va uning "madaniy siljishi" dinamikasi bilan birga kechadi.

Madaniyatshunoslar ziyolilar konsepsiyasini o'rganishni uchta yondashuv asosida ko'rib chiqadi:

1. O'zidan oldingilarning g'oyalari ularga qanday ta'sir qilganligi;
2. Ularning boshqalarga qanday ta'sir ko'rsatishi, ya'ni ularning g'oyalari madaniyat rivojini qanchalik aniq aks ettirishi. O'z davrini, uning rivojlanishining asosiy ma'nosi va yo'nalishini qanday tushunganligi va ifodalay olishi.
3. Ular mafkuraviy merosining avlodlar uchun ahamiyati qanday ekanligi [8].

### XULOSA

Intellektual madaniyat tushunchasi shaxs psixologiyasi chorrahasida tug'ilgan bilim bo'lib, eng yuqori darajadagi individuallikning namoyon bo'lishi, keyin bilish psixologiyasida psixologik rivojlanishning yuqori yoki past ko'rsatkichlari bilan hech qanday aloqasi bo'lmagan intellektual faoliyatning rasmiy tabiati ekanligi ta'kidlangan. "Intellektual madaniyat" atamasi mahalliy lug'atlarda aniq ta'riflanmagan bo'lib, garchi intellektual madaniyatning umumiy mazmunli ta'rifi bo'lmasada, tadqiqotlarda "intellektual madaniyat"ga ekvivalent bo'lgan turli atamalardan foydalaniladi. Jamiyatda shaxsning intellektual rivojlanish mexanizmlari individual aqliy tajriba makonida sodir bo'ladigan jarayonlar bilan bog'liq bo'lib va uni qayta qurish va boyitish bilan tavsiflanadi. Intellektual qobiliyatlarning o'sishi mentalitetning individual o'ziga xosligidir.

Pedagogik nuqtayi nazaridan intellektual madaniyat aqliy mehnat sohasidagi bilim va ko'nikmalar majmuasi: kognitiv faoliyatning maqsadlarini aniqlash, uni rejalashtirish, amalga oshirish qobiliyatini o'z ichiga oladi [7]. Jamiyatda bo'lajak mutaxassislarni professional tayyorgarligini ta'minlashda o'zgaruvchan metodologiyasi va evristik usullarni egallash kabi fazilatlarini shakllantirish, fikrlashning moslashuvchanligi, o'z muommolarini tafakkur asosida tezda hal qila olish qobiliyatining shakllanishi muhim. Demak, intellektual madaniyat keng qirrali tushuncha bo'lib, intellektual ko'nikmlardan - aqliy tajribagacha bo'lgan holatni o'z ichiga oladi. Shu o'rinda psixologik deterministlar intellektual madaniyatning paydo bo'lishiga va namoyon bo'lishiga hissa qo'shadigan shaxsning asosiy xususiyatlariga quyidagilarni kiritadi:

- shaxsning o'ziga nisbatan ijobiy munosabati: o'zini –o'zi qabul qilishi va qadrlashi;
- dunyoga bo'lgan munosabati;
- shaxsiy qadriyatlari;
- o'zini-o'zi tartibga solish qobiliyati;
- ijodkorligi, tashabbuskorligi va hokazo;

Intellektual madaniyatning mazmuni sifatida ijtimoiy va individual belgilash asosida tartibga solinadigan, insonning real hayotiy faoliyati bilan amalga oshiriladigan murakkab, ko'p tizimli maqsadli faoliyat, shu jumladan, ta'lim sohasida o'z-o'zini rivojlantirish, shuningdek kasbiy rivojlanish jarayonida aqliy jarayonlar, hamda ularning uyg'un kombinatsiyasi aqlni tashkil qiladi [3].

Intellektual madaniyat hodisasi ikki shaklga ega: shaxsiy va ijtimoiy.

A.R. Nazaretyanning (1991) jamiyatning rivojlanishi, zamonaviy inqirozlarni yengish uchun avvalo, umumiy tafakkurning rivojlanishi muhim.

Mazkur jarayonda ijobiy natija jamiyatda shaxsning ma'lum bir kognitiv xususiyatlari, jumladan dunyoni bilishi va kognitiv harakatlardan xabardorligi darajasi bilan bog'liq. Shaxsning intellektual madaniyatining asosi uning kognitiv qobiliyatidir. Rivojlangan intellektual madaniyatga ega bo'lgan shaxslarga xos bo'lgan xususiyatlardan biri avvalo dunyoga faol munosabatda bo'lishidir. Maslou inson faoliyatining turli darajalarini ehtiyojlar ierarxiyasi bilan bog'laydi. Uning fikricha ehtiyojlar tizimi shaxs faoliyatining asosiy manbaidir [9].

Shaxsning rivojlangan intellektual madaniyati ichki ta'minlovchi tizimligi bilan ham ajralib turadi. Bunda vazifa va uni oqilona hal qilish uchun zarur vositalar o'rtasidagi dastlabki aloqlar, harakatlar va izlanishlar ketma-ketligiga olib keladi. Intellektual madaniyatning konstruktivligi uning ijobiy va salbiy darajasi bilan bog'liq. Rivojlangan intellektual madaniyatga ega shaxs mustaqilligi bilan ajralib turadi va bilishda, amaliy faoliyatda ham o'zini namoyon qila oladi. Shunday qilib, individual darajada intellektual madaniyat yaxlit, murakkab tuzilgan shakllanish sifatida namoyon

bo'ladi, u bilan tavsiflanadi. Intellectual madaniyat jamiyatda kognitiv, tartibga soluvchi, kommunikativ vazifalarni bajaradi. Jamiyatdagi asosiy vazifasi anglash, tushunish parametrlarini kengaytirish, shuningdek ijodiy fikrlaydigan shaxslarni shakllantirish. Shaxsning intellektual rivojlanishi jamiyat uchun dolzarb muommoga aylanib bormoqda.

#### REFERENCES

1. Intellectual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 26.04.2022 йилдаги ПҚ-221-сон <https://lex.uz/uz/docs/5987120>
2. Аристотель. Метафизика. О душе // Аристотель. Сочинения в 4-х томах. Т.1. – М.: «Мысль», 1976. – С. 371–448.
3. Ананьев Б.Г. О проблемах современного человекознания. – М.: Наука, 1977.
4. Библер В.С. Мышление как творчество. – М.: Политиздатб 1975.-С. 295. [https://platon.net/load/knigi\\_po\\_filosofii/filosofija\\_poznanija/bibler-myshlenie-kak-tvorchestvo](https://platon.net/load/knigi_po_filosofii/filosofija_poznanija/bibler-myshlenie-kak-tvorchestvo)
5. Зиновьев А. Высшее образование и логика интеллекта // Alma mater. 2004. № 5. С. 11–13.
6. Petrova M.S., Repina L.P. Antik davr va o'rta asrlarning intellektual an'analari / oq'uv qo'llanma. - M., 2010.
7. Иванова, В. П. Феноменология интеллектуальной культуры: общие характеристики / В. П. Иванова // Вестник Томского государственного университета. 2010. № 334. – С.132-137.
8. Мядель А.П. Интеллектуальная культура: проблема определения. Витебск, Республика Беларусь. 2021.
9. Маслоу А.Ю. Психология бытия. Пер. с англ. - М.: Рефл-Бук; Киев: Ваклерб, 1997.
10. Макарова И.В. Аристотелевское учение о душе и уме в неоплатонической рецепции // Вестник Московской университет. Философия. – Москва,
11. Холодная М.А. Психология интеллекта : Парадокс исследования. 2-е изд; перераб и доп. - СПб: Питер, 2002.
12. [http://rep.vstu.by/bitstream/handle/123456789/14639/54konf\\_tom1-7-9.pdf?sequence=1&isAllowed=y](http://rep.vstu.by/bitstream/handle/123456789/14639/54konf_tom1-7-9.pdf?sequence=1&isAllowed=y)
13. <https://lex.uz/uz/docs/5987120>
14. <https://president.uz/oz/lists/view/3373>
15. G'affarova G., Norboyeva D. Kreativlik falsafasi. Monografiya. – Chirchiq: "Zebo print", 2023. – 105 b.
16. Гаффарова, Г. (2023). Молодежного Сознания В Цифровом Обществе. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 4(2), 13-17.
17. G. Gaffarova, G. Jalalova, (2022). Inson kapitalini rivojlantirish davrida kreativlik zaruriyati. *NamDU ilmiy axborotnomasi*. №3, -B.207-212.
18. Gaffarova, G.G. (2022), Murakkab tizimlarda axborot generasiiyasi. –Toshkent: —Noshirll, 224 b.
19. Gaffarova, G. (2022). Characteristics of Interdiscipline Approaches: Philosophical Analysis. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*. Volume: 2 Issue: 5, P.55-60.
20. G'affarova, G., Qodirov, B. (2022). Structural fundamentals of action strategy. *Journal of Positive School Psychology*. Vol.6, No.4, -Pp.9492-9500.